

Xushxabar: "O'zkimyosanoat" AJ "Davlat tilida ish yuritish bo'yicha eng namunali vazirlik-idora" nominatsiyasida g'olib bo'ldi

// 13.12.2024

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/xushxabar-o-zkimyosanoat-aj-davlat-tilida-ish-yuritish-bo-yi>



Bugun poytaxtimizdagi Milliy gvardiya Ma'naviyat va ma'rifat markazida "Eng namunali vazirlik-idora" hamda "Eng namunali tuman-shahar" tanlovlari g'oliblarini tantanali taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan mamlakatimizdagi ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarga munosib baho berish, bu borada eng namunali tuman-shahar, vazirliklarni rag'batlantirish maqsadida tashkil etilgan mazkur tanlovda "O'zkimyosanoat" AJ har yili faol ishtirok etadi.

Ahamiyatlisi, bu yil Jamiyat va tarmoq korxonalarida davlat tilida ish yuritish hamda olib borilayotgan ishlar yuksak baholanib, "Davlat tilida ish yuritish bo'yicha eng namunali vazirlik-idora" sifatida e'tirof etildi.

Jamiyatimiz va tizim korxonalari davlat tilimizning mavqeini yuksaltirishda va bu ishda namuna bo'lishda davom etadi.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati

